

INSON HUQUQLARI HIMOYASI: GLOBAL TALABLAR VA MAHALLIY AMALIYOTLAR

Xasanova Aziza Sherzod qizi

azizaxasanova07@gmail.com

Toshkent davlat yuridik universiteti

Jinoiy odil sudlov fakulteti 1-kurs A potok 3-guruh talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15490826>

Annotatsiya. Globallashuv shiddat bilan rivojlanayotgan dunyoda inson huquqlarini ta'minlash va himoya qilish xalqaro hamjamiyatning asosiy vazifasi bo'lib kelmoqda. Davlat uning tarkibida xalq bo'lganligi uchun ham davlat hisoblanadi. Agarda u o'z hududidagi insonlarning huquqlarini himoya qilolmasa va insonlarga huquqlaridan foydalanish imkoniyatini ta'minlay olmasa uning davlatchiligiga ziyon yetishi aniq. Shuning uchun ham inson manfaatlari oliy o'ringa qo'yilmoqda. Hech narsa undan ustun bo'lishi mumkin emas.

Dunyo mamlakatlarining ichki va tashqi siyosatdagi asosiy maqsadi inson huquqlarini oliy qadriyat sifatida mustahkamlash bo'lib kelmoqda va bu tamoyilni amalga oshirish uchun bir qancha sa'y- harakatlar amalga oshirilmoqda. Ayollarning, bolalarning, yoshlarning, keksalar va nogironlarning manfaatlari milliy konstitutsiyalarda va xalqaro hujjatlarda mustahkamlandi. Bunga zid harakatlarni amalga oshirganlar va inson huquqlarini poymol qilganlar belgilangan tartibda javobgarlikka tortilmoqdalar.

Abstract. In a world where globalization is rapidly developing, ensuring and protecting human rights has become the main task of the international community. A state is a state because it has a people in its composition. If it cannot protect the rights of people on its territory and cannot provide people with the opportunity to exercise their rights, it is clear that it will harm statehood. That is why human interests are put in the highest place. Nothing can be above it. The main goal of the countries of the world in their domestic and foreign policies is to strengthen human rights as a supreme value, and a number of efforts are being made to implement this principle. The interests of women, children, youth, the elderly and people with disabilities have been enshrined in national constitutions and international documents. Those who commit actions contrary to this and violate human rights are being held accountable.

Аннотация. В стремительно развивающемся мире глобализации главной задачей международного сообщества является обеспечение и защита прав человека.

Государство является государством, когда оно включает в себя людей. если она не сможет защитить права людей на своей территории, если она не сможет предоставить людям возможность пользоваться своими правами, то ясно, что это нанесет вред государственности. именно поэтому интересы человека имеют высший приоритет. ничто не может превзойти его. Основной целью стран мира во внутренней и внешней политике является укрепление прав человека как высшей ценности, и предпринимаются некоторые усилия по реализации этого принципа. интересы женщин, детей, молодежи, пожилых людей и инвалидов закреплены в национальных конституциях и международных документах. Лица, действовавшие вопреки этому и нарушившие права человека, привлекаются к ответственности в установленном порядке.

Kalit so‘zlar: Inson huquqlari, BMT, Ombudsman, genotsid, odam savdosi, bola huquqlari, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, demokratiya.

KIRISH

Inson huquqlari-bu insonga bevosita tegishli bo‘lgan va uning jamiyatdagi rolini belgilab beradigan normalar tizimi hisoblanadi. Shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy, ekologik va siyosiy huquqlar shaxsning ajralmas huquqidir. Muayyan davlatning birinchi vazifasi, albatta, inson huquqlarini ta’minlash hisoblanadi. Bu inson huquqlari ustuvorligi prinsipidan kelib chiqqan vazifalardan biridir. Inson huquqlari biri ikkinchisini to‘ldiruvchi normalar hisoblanadi. Shaxsiy huquqlar insonning tabiiy huquqidir va u ajralmasdir. Tabiiy huquqlar asrlar davomida shakllanadi va uni biror-bir davlat o‘zboshimchalik bilan o‘zgartirolmaydi.

Davlat faqat tabiiy huquqlarni himoya qiluvchi askar vazifasini bajaradi, holos. Boshqa huquqlar, masalan, siyosiy erkinliklar aynan shaxsiy huquqlar sababligina yuzaga keladi.

Chunki odamning yashash huquqi mavjud bo‘lmasa va himoya qilinmasa saylash va saylanish huquqi bo‘lganligining foydasi yo‘q.

Dunyodagi har bir davlatda ham inson huquqlariga oid muayyan qonunchilik tizimi shakllangan. Bu qonunchilikning negizini, avvalambor, konstitutsiyalar tashkil etadi. Barcha davlatlar konstitutsiyalarida inson va fuqaro huquqlari va erkinliklariga maxsus bo‘lim, boblar ajratilgan. Fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari joriy qonunlarda o‘z aksini topgan.¹ Shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasini ham bunga misol qilishimiz mumkin. Konstitutsiyamizda inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni va qadr-qimmati oliy qadriyat sifatida mustahkamlangan. Mamlakatimizda inson huquqlarini milliy va xalqaro darajada ta’minlash uchun bir qator strategiyalar va konsepsiylar ishlab chiqilmoqda. Ushbu hujjatlardagi vazifalarni amalga oshirish uchun davlat organlarining bir qator vazifalar belgilab berilmoqda.

Mustaqillik yillarda O‘zbekiston davlat siyosatining inson huquq va erkinliklarini himoya qilish sohasidagi quyidagi tamoyillari va asosiy yo‘nalishlari shakllandi:

birinchidan, demokratiya va inson huquqlarining umume’tirof etilgan g‘oya va qadriyatlariga, shuningdek, inson huquqlari sohasida xalqaro majburiyatlarga sodiqlik;

ikkinchidan, kuchli huquqiy davlatchilik va adolatli fuqarolik jamiyatini shakllantirishga asoslangan milliy manfaatlar ustuvorligi;

uchinchidan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlab qo‘yilgan shaxs manfaatlarining jamiyat va davlat manfaatlaridan ustunligi;

to‘rtinchidan, bosqichma-bosqichlik tamoyili – davlat va jamiyatni isloh etish va modernizatsiya qilishning eng muhim tarkibiy qismi ekanligi;

beshinchidan, ochiqlik va shaffoflik tamoyili. Ushbu tamoyil bu sohadagi barcha muammolarni muhokama qilish va hal etiish xalq bilan, fuqarolik jamiyatining barcha institutlari bilan hamda xalqaro sheriklar bilan muloqotda amalga oshirilishini anglatadi.²

¹ Inson huquqlari: darslik / A.R.Mo‘minov, M.A.Tillabayev; masúl muharrir A.X.Saidov. – 2-nashr. – T.:Adolat, 2013. -26 b. – (Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinganligining 65 yilligiga bag‘ishlanadi).

² Saidov A. X. Узбекистон ва Инсон хукуклари умумжакон декларацияси. – Тошкент: “Адолат”, 2018. – 154 б.

USULLAR

Ushbu maqolani yozishda inson huquqlari va uning himoyasini to‘liq o‘rganishga yordam beradigan bir qancha usullardan foydalanildi:

Qiyosiy usul: Bunda bir nechta davlatlarning inson huquqlari bo‘yicha yuritayotgan siyosatlari bir-biriga solishtirildi. Davlatlar inson huquqlarini ta’minlash va himoya qilish bo‘yicha mavjud bo‘lgan qonunchilik tizimi, ichki huquqiy mexanizmlari, xalqaro siyosatda ishtirok etish darajalari orqali qiyoslandi.

Tizimli usul: Ushbu usulda shaxsiy, siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va ekologik huquqlar o‘zaro bir-biriga bog‘langan tarzda, biri ikkinchisidan yiroqlashtirilmagan holatda o‘rganildi. Ya’ni ushbu huquqlar yagona bir tizim – inson huquqlari sifatida o‘rganildi.

Tarixiy usul: Bunda tarixga ko‘proq e’tibor qaratildi. Inson huquqlarining tarixiy rivojlanish bosqichlari chuqurlashtirilgan holatda o‘rganildi. Qadimgi davrda, o‘rta asrlarda, yangi davrda va eng yangi davrda inson huquqlariga qanchalik e’tibor berilganligi va Sharq hamda G‘arbda bu jarayonlar qanday kechganligiga urg‘u berildi.

NATIJALAR

Hozirda ham inson huquqlarini xalqaro darajada himoya qilish insoniyatning bosh vazifasi bo‘lib qolmoqda. Bu borada, ayniqsa, globallashuv va texnika asrida bir qancha qiyinchiliklar yuzaga kelmoqda. Ba’zan davlatlarning o‘zлari ham inson huquqlarini ta’minlash va himoya qilishda xatolarga yo‘l qo‘ymoqda. Insonlarning jinsiga, irqiga, qaysi millatga mansubligiga, diniy va siyosiy e’tiqodiga ko‘ra farqlash avj olib, bu genotsid darajasiga yetmoqda. Natijada ko‘plab begunoh ayollar, bolalar, erkaklar qirilib ketmoqda. Buning oldini olish uchun Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan Genotsid jinoyatining oldini olish va jazolash to‘g‘risidagi konvensiya (Convention on the prevention and punishment of the crime of genocide) qabul qilingan. O‘zbekiston Respublikasi ham O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1999-yil 20-avgustdaggi 835-1-son Qarori bilan ushbu konvensiyaga qo‘shilgan.

Unga ko‘ra ushbu jinoyatlar genotsid hisoblanadi:

- guruh a’zolarini o‘ldirish;
- guruh a’zolariga og‘ir jismoni yoki ruhiy shikast yetkazish;
- guruhni yo‘q qilishga mo‘ljallangan turmush sharoitlarini o‘rnatish;
- guruh ichida tug‘ilishning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni qo‘llash;
- guruh bolalarini boshqa guruhgaga majburan o‘tkazish.³

Inson huquqlarini buzuvchi global xavf-xatarlardan yana biri bu odam savdosidir. Odam savdosi – kuch bilan tahdid qilish yoki kuch ishlatalish yoxud boshqa majburlash shakllaridan foydalanish, o‘g‘irlash, firibgarlik, aldash, hokimiyatni suiiste’mol qilish yoki vaziyatning qaltisligidan foydalanish orqali yoxud boshqa shaxsni nazorat qiluvchi shaxsnинг roziligini olish uchun uni to‘lovlar yoki manfaatdor etish evaziga og‘dirib olish orqali odamlardan foydalanish maqsadida ularni yollash, tashish, topshirish, yashirish yoki qabul qilish.⁴

³https://www.un.org/en/genocideprevention/documents/atrocities-crimes/Doc.1_ConventionGenocide.pdf

Convention on the prevention and punishment of the crime of genocide. Article II

⁴ Odam savdosiga qarshi kurashish to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi qonuni// yangi tahrir

Bunga qarshi kurashish maqsadida O'zbekiston Respublikasi "Odam savdosiga qarshi kurashish to'g'risida" Qonunini qabul qilgan. Ushbu qonunga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Ichki Ishlar vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Bosh Prokuraturasi, Davlat xavfsizlik xizmati, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Tashqi ishlar vazirligi, O'zbekiston Respublikasining xorijdagi diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalari, Sog'liqni saqlash vazirligi odam savdosiga qarshi kurashishga doir faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlari hisoblanadi.

Inson huquqlariga xavf tug'diruvchi bu va boshqa illatlarga qarshi kurashish uchun har bir davlat o'zining alohida strategiya va yo'naliшhlarini belgilab olgan.

MUHOKAMA

Inson huquq va erkinliklarini ta'minlash va himoya qilishda 1945-yil 24-oktabrda tashkil etilgan Birlashgan Millatlar Tashkilotining o'rni beqiyos. Ushbu tashkilot davlatlarga inson huquqlari sohasida o'zining sinalgan tavsiyalarini beradi va ularni inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha birlashishga chaqiradi.

Ayniqsa BMT tomonidan 1948-yil 10-dekabrda qabul qilingan "Inson huquqlari umumjahon deklaratasiysi" alohida ahamiyatga ega. Ushbu hujjatning 2- moddasida – "har bir inson biror bir kamchiliksiz, irqi, terisining rangi, jinsi, tili, dini, siyosiy yoki boshqa e'tiqodidan, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishidan, mulkiy ahvoli, qaysi tabaqaga mansubligi va boshqa hloatlardan qat'iy nazar, mazkur Deklaratsiyada e'lon qilingan barcha huquq va erkinliklar sohibi bo'lishi kerak." - deb, yozib qo'yilgan.⁵

Shuningdek, BMTga a'zo davlatlar tomonidan bolalarga alohida e'tibor qaratilganligini aytib o'tish kerak. Bolalarning huquqlarini ta'minlash va himoya qilish maqsadida 1989-yil 20-noyabrda Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyani qabul qilishgan.

A'zo davlatlar bolaning yoki uning ota-onasining yoki qununiy vasiysining irqi, rangi, jinsi, tili, dini, siyosiy yoki diniy e'tiqodidan qat'iy nazar, o'z yurisdiksiyasi doirasidagi har bir bolaga ushbu konvensiyada belgilangan huquqlarni ta'minlash va hurmat qilinishini ta'minlaydi.⁶

O'zbekiston Respublikasida inson huquqlari bo'yicha xalqaro standartlarni milliy qonunchilikka bosqichma-bosqich implementatsiya qilish va huquqni qo'llash amaliyotining o'z modeli yaratilgan.

1992-yilda parlament tomonidan konstitutsiya qabul qilindi, uning ikkinchi bo'limini Inson huquqlari to'g'risida o'zbek billi deyish mumkin. Insonning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlariga oid qonunchilik tizimi yaratilgan: insonning huquqlari va asosiy erkinliklarini tartibga soluvchi 12 ta konstitutsion qonun, 17 ta kodeks va 700 tadan ortiq qonun qabul qilingan.⁷

Inson huquqlarini yetarli darajada ta'minlash va ularning buzilishini oldini olish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga huzurida Inson huquqlari bo'yicha vakili lavozimi ta'sis etilgan.

⁵ Inson huquqlari umumjahon deklaratasiysi// 2-modda

⁶ <https://www.ohchr.org/en/instruments-mechanisms/instruments/convention-rights-child>

Convention on the rights of the child// Article 2

⁷ Сайдов А. Х. Узбекистон ва Инсон хукуклари умумжахон декларацияси.-Тошкент: "Адолат", 2018.-155 б.

Uning faoliyatini tartibga solish maqsadida “Oliy Majlisning Inson huquqlari bo‘yicha vakili (Ombudsman) to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilingan.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili mansabdor shaxs bo‘lib, unga davlat organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va mansabdor shaxslar tomonidan inson huquqlari hamda erkinliklari to‘g‘risidagi qonunchilikka rioya etilishi ustidan parlament nazoratini ta’minalash vakolatlari berilgan.⁸

XULOSA

Xulosa qilib aytganda inson uning hayoti va huquqlari oliv qadriyat hisoblanishini tarix isbotlagan. Davlatlar bu tamoyilni o‘zlarining bosh vazifasi qilib olinmoqda. Buni o‘zlarining Konstitutsiyasi va uning asosida qabul qilingan boshqa qonun hujjatlarida belgilab qo ‘ymoqda.

Inson huquqlari buzilishini har tomonlama cheklash maqsadida xalqaro hamkorlikni kuchaytirishmoqda. Xalqaro maydonda o‘zlarining faol harakatlari bilan buni keng targ‘ib qilishmoqda.

Hozirgi kunda insonni va uning huquqlarini buzuvchi bir nechta g‘ayrioddiy harakatlar yuzaga keldi. Bu jinoyatlarning oldini olish maqsadida davlatlar o‘zaro kelishib harakat qilishmoqda. Shuningdek, bu jinoyatlarga qarshi kurashish uchun o‘zlarining mahalliy amaliyotlarini yuzaga keltirishmoqda.

REFERENCES

1. Inson huquqlari: darslik / A.R.Mo‘minov, M.A.Tillabayev; masúl muharrir A.X.Saidov. – 2- nashr. – T.:Adolat, 2013. -504 b. – (Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinganligining 65 yilligiga bag‘ishlanadi.)
2. Saidov A. X. Узбекистон ва Инсон хукуклари умумжахон декларацияси. – Тошкент: “Адолат”, 2018. – 240 б.
3. https://www.un.org/en/genocideprevention/documents/atro_city-crimes/Doc.1_ConventionGenocide.pdf
4. Convention on the prevention and punishment of the crime of genocide.
5. Odam savdosiga qarshi kurashish to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi qonuni// yangi tahrir
6. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi//
7. <https://www.ohchr.org/en/instruments-mechanisms/instruments/convention-rights-child> Convention on the rights of the child//
8. <https://lex.uz/acts/-276159>
9. “Oliy Majlisning Inson huquqlari bo‘yicha vakili to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni//

⁸ ⁸ <https://lex.uz/acts/-276159>

“Oliy Majlisning Inson huquqlari bo‘yicha vakili to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni// 1-modda